TILSHUNOSLIKDA LINGVOEKOLOGIYA ASPEKTLARINING O‘RGANILISHI

R.U.Suvonova
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekolingvistikaning o‘rganilish jihatlari haqida dastlabki fikrlar bayon etildi. Xususan, nutq madaniyat, stilistika va til kommunikativlaridagi nutqiy buzilishlar haqida so‘z borgan. Shuningdek, til sofligining buzilish holatlari haqida olimlarning fikrlari o‘rganilgan. Tildagi uslubiy o‘ziga xos so‘zlarning adabiy til normalariga mos kelmaslik holatlari ham ko‘rib chiqilgan.

Аннотация. В этой статье были представлены предварительные мысли об аспектах обучения эколингвистике. Подробно рассматривается внутриязыковой аспект. В частности, речь шла о нарушениях речи в культуре, стилистике и языковом общении. Также были изучены мнения ученых-исследователей о случаях нарушения чистоты языка. Также рассматриваются случаи несоблюдения норм литературного языка стилистически специфичных слов в языке.

Abstract. In this article, preliminary thoughts about the learning aspects of ecolinguistics were presented. The intralingual aspect is discussed in detail. In particular, the speech spoke about speech disorders in culture, stylistics and linguistic communication. Also, the opinions of research scientists about cases of violation of language purity were studied. Cases of non-compliance with the norms of the literary language of stylistic specific words in the language are also considered.

Kalit so‘zlar: intralingual, interlingual, translingual, nutqning mantiqiyligi, to‘g‘rililik, aniqlilik, stilistika, ritorika.

Ключевые слова: внутриязыковой, межъязыковой, транслингвальный, логика речи, правильность, точность, стилистика, риторика.

Key words: intralingual, interlingual, translingual, logic of speech, correctness, accuracy, stylistics, rhetoric.

Ekolingvistika - inson va uning atrof-muhitga o‘zaro ta’siri doirasida ish ko‘radi. Til inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar zanjirining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mavjud tildagi soflik masalasi ekolingvistikada ustun turuvchi jihatlardan biri hisoblanadi. Tilning sofligi masalasi hamma davrlarda ham dolzarb va ahamiyatli bo‘lib kelgan. Behbudiy tilni soflashtirish masalasida “Sadoyi Turkiston” gazetasida berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, gazetaning bu harakatiga “ijrosi mumkin emas orzu” deb qaraydi. Sabab, asrlar davomida arab va

fors tili ta’sirida qolgan turkiy tilni “yana bir necha ming sanada bularni(ng) ta’siridan chiqarmoq” ishiga berilsak, “ma’nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo‘lgan tilimizg‘a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)” tilidan yangi so‘zlar kirib kelishini ta’kidlagan. [56] Til sofligi borasida olim V.S.Yelistratov[57] ham o‘z fikrlarini bayon qilgan. Rossiyalik tadqiqotchi E.V.Ivanova ta’kidlaganidek: “Tilning faoliyati va rivojlanishi ekotizim sifatida, uning atrofidagi dunyo esa til tushunchasi sifatida belgilanadi”. Ushbu tizim o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda til ekologiyasining uch jihati mavjud:

1. Intralingual (nutq madaniyati, stilistika, ritorika bilan bog‘liq va nutqning to‘g‘riligi, ravshanligi, mantiqiyligi, ekspressivligi va boshqa kommunikativ xususiyatlarining buzilishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi).
2. Interlingual (ko‘p tillilik alohida etnik tilning yashash joyi sifatida va tillarning yo‘q bo‘lib ketishi muammosi va shuning uchun Yerdagi til xilma-xilligini kamayishi bilan bog‘liq).
3. Translingual (badiiy adabiyotda, folklorda, jurnalistikada, bir tilning birliklari, vositalari, voqeliklari, boshqa madaniyatga tegishli boshqa til konteksida va vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq). [58]

Intralingual jihatida tilning ichki imkoniyatlari doirasidan kelib chiqqan holda tildagi ekologik muammolar o‘rganiladi. Bunda, asosan, tilimizning uslubiyat sohasi bilan o‘zaro aloqada ko‘rib chiqilishi taqazo etiladi. Tildagi nutq unsurlarining buzilishi o‘rganilar ekan, shular bilan bir qatorda nutqning to‘g‘riligi, aniqliligi, emotsional-ekspressivligi kabi masalalariga ham e’tibor beriladi. Nutqning to‘g‘riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlardan yuqori turadi. Negaki, to‘g‘ri bo‘lmagan nutqning boshqa xususiyatlari haqida gapirishning o‘zi noto‘g‘ridir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me’yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlargina emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko‘rsatish, odamlarga ma’lum “til didi” – ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.[59] Nutqimizda ayrim so‘z ma’nolariga e’tiborsizligimiz natijasida, ko‘pchilik uchun tushunarsiz va g‘aliz bo‘lgan nutqiy parchalarni ishlatib qo‘yamiz. Bu esa nutqda til sofligini buzishga xizmat qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Masalan, nutqda “Men sizga turli kitoblar taklif qilishim mumkin” jumlasida taklif so‘zi, “Siz o‘z qobig‘ingizdan chiqish ko‘yini topa olishingizga ishonaman” gapida esa ko‘yi so‘zi noo‘rin qo‘llangan. Nutqimizda taklif so‘zini tavsiya so‘ziga, ko‘yi so‘zi o‘rniga esa yo‘li so‘zini almashtirib qo‘llash nutq madaniyatidan farosat bilan foydalanganligimizni ko‘rsatadi.

[56] Mahmudxo‘ja Behbudiy. Jadidlar. – Toshkent, 2022. – B.108.
[57] Литературная газета. – Москва, 2012. – №42.
[58] Haugen E. The Ecology of language. Essays by Einar Haugen. – Stanford, 1972.
[59] Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. – B.10.

Stilistika (uslubiyat) bilan bog‘liq nutqdagi buzilishlar ham intralingual aspekt doirasida o‘rganiladi. Stilistikani ikki xil ko‘rinishini S.Sultonsaidova va O‘.Sharipovalar hammuallifligi ostida nashr qilingan "O‘zbek tili stilistikasi"[60] o‘quv qo‘llanmasida atroflicha tadqiq etilganini ko‘rishimiz mumkin. Shunga binoan, stilistika nutq stilistikasi va lingvistik, ya'ni til stilistikasiga ajratilgan. Nutq stilistikasi – bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so‘zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik va badiiy stil kiradi.[61] Nutq uslublarining har birida so‘zlarni alohida e'tibor bilan qo‘llash lozim. Uslubdagi har qaysi elementdan o‘rinli foydalanish darkor. "Tayinlansin", "topshirilsin" kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llarni rasmiy uslub doirasida qo‘llaymiz va boshqa nutq uslublarida deyarli shunga o‘xshash so‘zlardan foydalanmaymiz. Bu esa har bir uslubning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. Nutq uslublaridan to‘g‘ri, o‘rinli va ta'sirchan foydalana olish nutq egasining mahoratidan dalolat beradi. Yaxshi nutq – san'at darajasidagi qobiliyatdir. Tilshunos S.I.Ojegov yaxshi nutq haqida gapirar ekan, "Yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyati – bu o‘z fikrini til vositalari orqali to‘g‘ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay olish qobiliyatidir", – deydi.[62] Yaxshi nutq deyilganda, so‘zlovchi yetkazib berayotgan nutqning tinglovchi va kitobxonga to‘liq yetib borishi va ma'lum doirada ta'sir ko‘rsatishi anglashiladi. Shunga ko‘ra, nutq oldiga ma'lum talablar qo‘yiladi. Bular nutqning kommunikativ sifatlari bo‘lib, unda nutqning mantiqan to‘g‘ri, aniq, jo‘yali va ta'sirchan bo‘lishi kabi sifatlari nazarda tutiladi.

Nutqning kommunikativ sifatlarining buzilishi kishi nutqining qolaversa, jamiyatdagi tilning ekologiyasiga salbiy ta'sir o‘tkazadi. To‘g‘rililik nutqdagi asosiy masalalarda biri ekan, adabiy til me'yorlarining buzilishi nutqni noto‘g‘ri tuzilganligini ko‘rsatadi. Masalan, Yozda ko‘lning **suviga** mazza qilib **cho‘milishamiz** kabi shakl so‘zlashuv uslubida qo‘llanaverishi mumkin, biroq adabiy til normalari jihatidan noto‘g‘ri tuzilgan hisoblanadi. Ammo badiiy asarlarda uchraydigan nutqiy parchalardagi shunga o‘xshash birliklar esa qahramon xarakterini, asardagi ijtimoiy muhitni va badiiy asar tilining imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo‘ladi. **Xayollarim** nega bunchalik sarson bo‘layotganini o‘zim ham anglay olmayapman gapida mavhum ot tarkibida kelgan **-lar** affiksi ko‘plik ma'nosida ishlatilmaganligini matn mazmunidan anglash qiyin emas. Ma'noni kuchaytirish va asarga o‘zgacha ifoda bag‘ishlash uchun ham bunday usullardan ko‘p foydalaniladi. Shu sababdan adabiy parchalardagi grammatik vositalarning qo‘llanmasligi yoki ortiqcha ishlatilishi kabi holatlari nutqning to‘g‘ri tuzilmaganligini ifodalamaydi. Adabiy tilning yozma shaklida esa to‘g‘rililik

[60] Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.
[61] Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009. – B.8.
[62] Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. – B.16.

xususiyati yetakchidir. Bundan tashqari nutqning aniqlik masalasi ham e'tiborga molik. Aniq nutq tuzish uchun tildagi leksik birliklardan yaxshi xabardor bo'lish kerak. Aristotel o'zining "Ritorika" kitobida "…agar nutq aniq bo'lmasa, u o'z maqsadiga erisha olmaydi", – deya nutqning aniqlik masalasi asosiy xususiyatlardan biri ekanligiga to'xtalib o'tadi. Nutqimizda ishlatiladigan U eshikdan **chopib** kirdi jumlasida ifodalamoqchi bo'lgan ma'no **yugurmoq** so'zi orqali to'liq anglashiladi. Chopmoq va yugurmoq ma'nodosh so'zlarining tavsifi haqida Alibek Rustamovning "So'z xususida so'z" [63] kitobida yetarlicha fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, qo'llanayotgan har bir lug'aviy birlikning ma'nosini yaxshiroq o'rganish nutqning aniqlik prinsiplariga qay darajada amal qilayotganimizni bildiradi. Nutqdagi aniqlik ekolingvistikaning asosi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari bo'lgan to'g'rilik va aniqlik bilan o'zaro bog'langan. To'g'ri tuzilmagan so'z va to'g'ri tanlanmagan leksik birlik o'z navbatida mantiqning buzilishiga ham sabab bo'ladi. Nutqda mantiqiylikning buzilishi tinglovchiga fikrni to'g'ri yetib bormasligiga olib keladi. Bolalarning suhbati **qanday** oromgohlarda dam olganliklari haqida borar edi (televizordan). Aslida Bolalarning suhbati oromgohlarda **qanday** dam olganliklari haqida borar edi bo'lishi kerak. [64] Xullas, nutqning mantiqiyligi deganda til birliklaridan o'rinli foydalanilgan, fikrning mantiqiylik jihatidan izchil qo'llangan so'z, ibora va shunga o'xshash leksik birliklaridan maqsadga muvofiq qo'llanilgan yaxlit butunlik tushuniladi.

Tilimizda ritorika (notiqlik) bilan bog'liq masalalar ham atroflicha o'rganilgan va uning lingvoekologiyaga qay darajada ta'sir o'tkazishi tadqiqotlar natijasida aniqlanadi. Ritorika murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Haqiqiy nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikning maxsulidir. Oddiy, madaniy va savodli so'zlashni o'rgangan notiq, notiqlik san'atini egallashga birinchi qadamni qo'ygan hisoblanadi. [65] Notiq qo'llayotgan so'z va iboralarining ma'nolariga, so'z qo'llash usullariga e'tiborli bo'lishi kerak. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini yaxshi bilishlik ham talab qilinadi. Paronimlarda o'rinli foydalanish, nutqning ta'sirchanligini oshirish va takrordan qochish maqsadida sinonimlarni mohirona qo'llay olish nutq egasining mahorati sanaladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, shu tilda gaplashuvchi har bir shaxs o'sha tilning ichki imkoniyatlaridan o'rinli va to'g'ri foydalangan holda nutqini shakllantirishi lozim. Nutqda e'tibordan chetda qolishi kerak bo'lgan nutqiy birliklarni ishlatmaslik nutqning ta'sirchan bo'lishini, tilimiz ekologiyasini normal

[63] Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent, 1987. – B.107.
[64] Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent, 2016. – B.27.
[65] Muhammadjonova L. Ritorika. – Toshkent, 2019. – B.4.

holatda saqlash imkonini beradi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan stilistika, nutq madaniyati yoki ritorika bilan bog‘liq muammolar intralingual aspekt doirasida o‘rganishni taqazo etadi. Odatda, so‘zlashuv uslubida nutqiy buzilishlar ko‘p uchraydi. Negaki, tilda qulayliklarga intilish maqsadida nutqimizda buzilishlar ko‘plab topiladi. Gapirayotgan so‘zlarimizni diqqat bilan o‘rganmasdan ulardan foydalanish nutqning g‘alizligiga, yetkazmoqchi bo‘lgan fikrning tinglovchiga to‘la yetib bormasligiga va eng asosiysi til ekologiyasining yomonlashuviga olib keladi. Bu kabi nutqdagi kommunikativlarning buzilishiga e’tiborsizlik bilan qarash, bora-bora tilning yo‘q bo‘lishiga indamay qarab turish bilan barobardir. Intralingual jihatidan tilni qanchalik ko‘p tahlil qilish tilga bo‘lgan hurmat namunasi o‘laroq ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haugen E. The Ecology of language. Essays by Einar Haugen. – Stanford, 1972.
2. Литературная газета. – Москва, 2012. – №42.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Jadidlar. – Toshkent, 2022.
4. Muhammadjonova L. Ritorika. – Toshkent, 2019.
5. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent, 2016.
6. Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006.
7. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent, 1987.
8. Sultonsaidova S., Sharipova O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009.